

SMTI eksperti Markaziy Osiyo Oqsoqollar kengashi tashkil etilishining amaliy ahamiyati haqida soʻzlab berdi



Joriy yilning 16-noyabr kuni Toshkent shahrida oʻtkazilgan Markaziy Osiyo davlat rahbarlari Maslahat uchrashuvida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan bir qator tashabbuslarni ilgari surdi. Ayniqsa, Markaziy Osiyo Oqsoqollar kengashini taʼsis etish taklifi katta qiziqish uygʻotdi. Baʼzilar uchun bu anʼanalarga qaytishdek tuyulsa, boshqalar uchun mintaqaviy diplomatiyaning yangi shakli boʻlib koʻrinadi. Ushbu tashabbusning asl maʼnosi nimada va u Markaziy Osiyoning kelajagi uchun qanday amaliy ahamiyatga ega boʻlishi mumkin? Bu savol bilan biz Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti direktori birinchi oʻrinbosari Akramjon Ilhomovich Neʼmatovga murojaat qildik.

- Oʻzbekiston Prezidentining Markaziy Osiyo Oqsoqollar kengashini tashkil etish tashabbusi haqiqatan ham alohida eʼtiborga loyiq, chunki u odatiy institutsional yechimlar doirasidan chiqib, mintaqamizning chuqur ijtimoiy va madaniy mantigʻiga tayanadi. Gap rasmiy organ yoki siyosiy tuzilma haqida emas, balki Markaziy Osiyo jamiyatlarining barqarorligi va ichki uygʻunligini tarixan taʼminlab kelgan ijtimoiy kelishuv mexanizmlariga qaytish haqida bormoqda.

Markaziy Osiyo jamiyatlari tarixan ijtimoiy tinchlikni saqlash, nizolarni hal qilish va kelishilgan yechimlarni ishlab chiqish mexanizmi sifatida oqsoqollar institutiga tayangan. Rasmiy-yuridik tuzilmalardan farqli oʻlaroq, oqsoqollar ishonch, tajriba, anʼanalarni bilish va jamiyat tomonidan tan olinishga asoslangan qonuniylikka ega edilar. Ijtimoiy xolislikning aynan shu shakli siyosiy oʻzgarishlar, tashqi tahdidlar va ichki ziddiyatlar sharoitida hamjamiyatlarning barqarorligini taʼminladi.

Ushbu mantiqni mintaqaviy darajaga koʻchirish davlatlararo muloqotning oʻziga xos norasmiy yoʻnalishini

yaratishga imkon beradi, bu esa hozirgi siyosiy vaziyatning bosimi, mafkuraviy tafovutlar va tashqi ta'sirlardan xoli bo'ladi. Oqsoqollar kengashi rasmiy institutlarning o'rnini bosmaydi va davlat organlari bilan raqobatlashmaydi, balki ularni to'ldiradi, rasmiylashtirishga tayyor bo'lmagan nozik masalalar muhokama qilinishi mumkin bo'lgan ishonchli muloqot maydonini yaratadi.

Mintaqaviy xavfsizlik nuqtayi nazaridan, Oqsoqollar kengashi preventiv diplomatiya vazifasini bajarishga qodir. Uning a'zolari yuksak ma'naviy obro'-e'tiborga va mintaqaviy xususiyatlarni chuqur bilish, keskinlashuv xavfini o'z vaqtida aniqlash, vaziyatni yumshatish, inqirozli holatlarda vositachilik qilish va muammolar ochiq bosqichga o'tmasidan avval murosali yechimlarni taklif etish qobiliyatiga egadirlar. Bunday yondashuv mojarolarning oldini olishning eng yaxshi xalqaro tajribalariga mos kelib, shu bilan birga Markaziy Osiyoning o'ziga xos an'analariga asoslangan.

Oqsoqollar kengashi "ijtimoiy yelim" sifatida mintaqaviylikni mustahkamlashda alohida ahamiyatga ega. Rasmiy integratsiya mexanizmlari ko'pincha suverenitetning cheklanishi, ishonchsizlik va milliy manfaatlarining farqlanishi bilan to'qnash keladigan sharoitda, aynan norasmiy institutlar umumiylik, birdamlik va o'zaro mas'uliyat tuyg'usini saqlab qolish imkonini beradi. Oqsoqollar kengashi mintaqaviy qadriyatlar - yaxshi qo'shnichilik, o'zaro hurmat, bag'rikenglik, murosa va tinch-totuv yashashning targ'ibotchisi va ifodachisiga aylanishi mumkin.

Bundan tashqari, Oqsoqollar kengashining maslahatchi sifatidagi roli uzoq muddatli va oqilona qarorlar qabul qilishga ko'maklashadi. Oqsoqollar bir lahzalik siyosiy hisob-kitoblarga emas, balki tarixiy tajriba, madaniy xotira va jamoatchilik kayfiyatini tushunishga tayanib, umumiy mintaqaning barqaror rivojlanishiga qaratilgan tavsiyalar bera oladilar. Bu, ayniqsa, suv-energetika resurslari, ekologik tahdidlar, migratsiya, transport jihatidan o'zaro bog'liqlik va gumanitar hamkorlik masalalarida muhim ahamiyatga ega.

Oqsoqollar kengashi Markaziy Osiyo mamlakatlari jamiyatlari nazarida mintaqaviy hamkorlikning qonuniyligini kuchaytirishi muhimligini ta'kidlash lozim. Uning faoliyati nafaqat elitalar, balki mintaqqa xalqlarining ham qaror qabul qilish jarayonlariga jalb etilganlik hissini uyg'otadi. Shu tariqa, davlatlar va jamiyatlar o'rtasida, avlodlar o'rtasida, o'tmish tajribasi hamda kelajakdagi taraqqiyot strategiyalari o'rtasida ko'priklar yaratiladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, mintaqalarning barqarorligi nafaqat shartnomalar va institutlar orqali, balki o'zaro munosabatlarning me'yorlari, qadriyatlari, o'ziga xosligi va an'analari orqali ham shakllanadi. Shu ma'noda Oqsoqollar kengashi Markaziy Osiyo o'ziga xosligini shakllantirish vositasi bo'lib, mintaqqa umumiy tarixiy yo'l, umumiy muammolar va umumiy taqdir makoni ekanligi haqidagi tasavvurni mustahkamlaydi.

Umuman olganda, Oqsoqollar kengashini umumiy tarixiy yo'l, umumiy muammolar va umumiy kelajak uchun mas'uliyat bilan birlashgan Markaziy Osiyoning barqarorligi va subyektivligini mustahkamlash vositasi sifatida ko'rish mumkin. Ushbu tashabbusning strategik qiymati ham aynan shunda.